



BADIIY MATNLARDA “VATAN” KONSEPTINING IFODALANISHI

Shodiyeva Shoxida Inatovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
Tel: +99897 438-48-99

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy ijodda Vatan tushunchasining nozik qirralarini ochib berish shoirlarning adabiy til imkoniyatlarini qay darajada bilishi, soʻz ijodkorligiga bogʻliq ekani xususida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: matn uslubi, mikromodel, ekstralingvistik maʼlumot, lingvomadaniyatshunoslik, noverbal shakl, konseptosfera, tipologik oʻxshashlik, milliy mentalitet.

Аннотация: В данной статье рассматривается, в какой степени раскрытие тонких аспектов концепции Родины в художественном творчестве зависит от знания поэтами возможностей литературного языка и их словесной выразительности.

Ключевые слова: текстовая методология, микромодель, экстралингвистическая информация, лингвистические и культурологические исследования, невербальная форма, концепт-сфера, типологическое сходство, национальный менталитет.

Abstract: This article discusses the extent to which revealing the subtle aspects of the concept of Homeland in artistic creation depends on the poets knowledge of the possibilities of the literary language and their word creativity.

Keywords: textual methodology, micromodel, extralinguistic information, linguistic and cultural studies, nonverbal form, conceptsphere, typological similarity, national mentality.

KIRISH: Badiiy ijodda, xususan, poetik matnlarda Vatan tushunchasining nozik qirralarini ochib berish shoirlarning adabiy til imkoniyatlarini qay darajada bilishi, soʻz ijodkorligiga bogʻliq. “Ayniqsa davlat tili maqomiga ega boʻlgan, oʻzbek tilida, yaʼni oʻz ona tilida milliy gʻurur bilan erkin ijod qilayotgan ijodkorlardan har birining lugʻat zaxirasini soʻz yasash qonuniyatlari nuqtayi nazaridan ilmiy, izchil





ravishda o'rganishni, okkazonal so'z yasalihi va so'z ijodkorligi masalasini, ularning qo'llanishidagi funksional-uslubiy o'ziga xosliklarni matn uslubiyati, kommunikativ lingvistika tamoyillari nuqtayi nazaridan yoritishni va shu asosda umumadabiy va uslubiy me'yorlardan ijodiy chekinish hollarining nutq mahorati va nafosati bilan bog'liq jihatlarini o'rganishni ham taqozo etmoqda. Bu jihatdan nazmiy matnlarga xos yaratilarni lingvo-stilistik tahlil qilish, ilhom jarayonida tug'ilgan g'ayriodatiy so'z va ifodalarni shoirona idrok eta bilish, ayon matn tarkibida uqib olish va so'z nafosati dunyosidan ham hissiy-ruhiy bahra olib, ham bu ohorli yaratilarning, noodatiy qo'llanishlarning umummilliy lug'at xazinasidagi o'rniga baho berish davr tilshunoslarining zimmasida"[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Xalq yo'qolishi bilan uning tili va madaniyati yo'qoladi. Yu.S.Stepanovanning konseptning madaniyatning asosiy tushunchalaridan biri ekanligi haqidagi quyidagi fikrlari ham e'tiborga molik: "konsept–madaniyatning mikromodeli, u undan tug'iladi va uni tug'diradi. "Madaniyat yig'indisi" bo'lgan konsept ekstralingvistik, pragmatik, shuningdek, nolisoniy ma'lumotlarga ega" bo'ladi [2]. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashilsa, "Vatan" konseptining lingvomadaniyat masalalari bilan uyg'unligi ma'lum bo'ladi. Ularning o'zaro bog'liqligi quyidagicha ko'zga tashlanadi: lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, aloqasini o'rganadi, "Vatan" konsepti ajralmas komponentlar sifatida bu tushunchalarni o'zida qamrab oladi. Shunday qilib, "Vatan" konseptini o'rganishda lingvomadaniyat tamoyillariga suyanib ish ko'rish kutilgan natijani beradi.

Madaniyat –bu fikrlar olami. Fikrlar esa so'zlar vositasida tinglovchi yoki o'quvchiga yetkaziladi. Har bir so'z har xil tilda turlicha aytilgan, grafik jihatdan turlicha bo'lgan va turli ma'nolarni ifodalagan, ammo tillar grammatik qurilishga qay darajada yaqin bo'lsa, ma'noga shuncha yaqin bo'lgan. Masalan, qadimda hind qabilalarida kishilar o'zlarining boshqalarga bo'lgan hurmatini uning yuziga tupurish bilan ifodalaganlar. Boshqa xalqlarda esa yuzga tupurish, kuchli nafrat, haqorat belgisi hisoblanadi. Har bir xalq o'zining tabiatga, hayvonot va nabototga, kishilarga munosabatini o'zicha ifodalaydi. Buning ifodasi sifatida zoonimlarni olib qarasak. Zoonimlar har bir xalq tili leksikasida mavjud bo'lib, buni inson va hayvonot dunyosi orasida chambarchas bog'liqlik borligi, hayvonlar inson hayotida muhim rol o'ynashi





bilan izohlash mumkin. Masalan, fil hindlar uchun muqaddas hayvon bo'lgani holda o'zbeklar uchun oddiy hayvon hisoblanadi. O'zbeklarda farzandlarni "qo'zichog'im" deb, ruslarda esa "cho'chqacham" deb erkalash qabul qilingan. Va bunga milliy mentalitetimizga xos deb qarash mumkin. Ammo o'zbek bolasini "cho'chqacha" deb, rus bolasini "qo'zichoq" deb erkalash haqorat sifatida qabul qilinadi.

Qadimgi davlardayoq kishilar inson va hayvonot o'rtasida bog'liqliklar mavjudligini payqaganlar. Bu esa o'zaro muomala jarayonida insonlarning nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, bir-birlarini tavsiflashda hayvon nomlari bilan atashlariga sabab bo'lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Keyingi vaqtlarda zamonaviy tadqiqotlar doirasiga "Mamlakatning milliy obrazi" tushunchasi ham kirib keldi. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarida ma'lum tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Chunki "Ma'lum millatning tipik jihatlari mohiyati haqida barqaror tushunchani shakllantiruvchi milliy obraz – verbal va noverbal shakllarda o'z aksini topadi"[1] Albatta, Vatan tushunchasi bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas. Uning paydo bo'lishi tarixi olis davrlarga borib taqaladi. "Barcha tipologik o'xshashliklarda har bir xalq bu konseptlarni idrok qilishda farqli jihatlarga ega, takrorlaymizki, millatning har bir konseptosferasini asrlar davomida individlar, shaxslar shakllantiradi. Shu bois Vatan-O'zbekiston haqida fikr yuritilganda Koshg'ariy, Yugnakiy, Amir Temur, Navoiy, Bobur kabi ajdodlar nomi tilga olinadi. Shuning uchun shaxs konseptosferasi haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Vatan konsepti asrlar davomida milliy o'ziga xoslikni saqlab kelayotgan mavzu sifatida badiiy adabiyot an'alaridan hisoblanadi"[4]. Vatan konseptining badiiy talqinini biz badiiy adabiyotda uchratamiz. Bu konseptning badiiy adabiyotda keng o'rin egallashida shoir va yozuvchilarning xizmatlari katta bo'ladi.

Alisher Navoiy ijodida Vatan konsepti o'zining mukammal tavsifiga ega bo'lgan. Navoiy o'zining "Saddi Iskandariy" dostonida Vatan haqida "Vatan tarkini bir nafas istama, Yana ranji g'urbat havas istama" mazmunidagi pand-nasihat tarzidagi misralarni bitadi[5]. Navoiy fikricha, hech bir zarurat, havas, orzu, hattoki u fotihlik g'alabasi bo'lsin, Vatanni tark etishga arzimaydi. Navoiy Vatandan ayriliqda ranj va alamni ko'radi. Shoir fikrini davom ettirib Safar mehnati jovidoni durur, Nedinkim saqardin nishoni durur... Safar azmi do'zaxqa sonidurur, Vatan hubbi imon





nishonidurur -deydi. Navoiy Vatandan ayiradigan safar mashaqqatlarida do‘zax azobini ko‘radi. Shoir bu o‘rinda “do‘zax” ma’nosini bildiruvchi “saqar” so‘zining “safar” so‘zi bilan yozilish nuqtayi nazaridan ham juda yaqinligini nazarda tutadi. Shuningdek, u mazkur baytga mashhur “Vatanni sevmoq iymondandir” hadisi sharifining mazmunini singdirib, Vatanni sevish iymon nishoni ekanligini eslatadi[8].

Bobur ijodida ham Vatan konsepti muhim o‘rin tutadi. “U adabiyotimizga real va konkret Vatan obrazini olib kirdi. To‘g‘ri, o‘zbek she‘riyatida Boburgacha ham Vatan timsoli bor edi. Biroq agar salaflar ijodida Vatan tushunchasi umuman tiriklik, istiqomat qilish, ro‘zg‘or tushunchalarini ifodalagan bo‘lsa, Bobur vatan deganda, faqat Samarqand yoki Andijonni emas, umuman Turkistonni tushundi. O‘z asarlarida uning portretini suratladi, pirovard natijada, Vatanning badiiy obrazini yaratdi.

Bobur idrokida diyor-u yor tushunchalari o‘zaro qorishib ketadi:

*Ko‘pdin berikim, yoru **diyorim** yo‘qtur,*

Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo‘qtur.

Vatandan judo bo‘lgach, uning obrazi endi shoir she‘rlarida sog‘inch mazmuni orqali o‘z ifodasini topadi:

Kabutar, eltasen xattim, ne bo‘lg‘ay gar qabul etsang,

Ko‘ngulni bog‘lasam ul noma yanglig‘ parru bolingg‘a.

Yoki:

Qovun birla uzumning hajrida ko‘nglumda g‘am har su,

Oqar suvning firoqidin ko‘zumdin har dam oqar suv.

Shoir vatandan judolikka chiday olmaydi, ko‘nika olmaydi, bir kuni yana vatanga qaytishiga ishonadi.

O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim,

Yorab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

“Boburnoma” asaridagi o‘nlab qaydlarda ham Vatan timsoli gavdalanadi:

*Bormoqqa ne **maskan** muyassar,*

*Turmoqqa ne **davlat** muqarrar[9].*

“Musofir bo‘lmaguncha, kishi musulmon bo‘lmas”. Vatanda turib uni tasavvur qilish, his etish, uning timsolini mukammal ko‘ra bilish, tuyish dargumon. Zahiriddin Muhammad Bobur vatandan olisda, musofirlikda uning timsolini yaxlit tasavvur etdi, ko‘rdi, uning mehrini, qadrini teran his etib idrok qildi. Vatan, diyor, yor hajrida,





sogʻinch dardida koʻz yosh toʻkkan boʻlsa kerakki, bu holat uning sheʼrlarida yaqqol namoyon boʻlgan”[9]. Boburning gʻazal, masnaviy ruboiylarida Vatan, yor-diyor mavzusi salmoqli oʻrin tutadi. U oʻz ona yurtidan yiroqda boʻlsa ham tugʻilib-oʻsgan diyoriga, vataniga boʻlgan sogʻinchli muhabbat, unga yetishish orzusi doimo qalbini iztirobli tuygʻularga chulgʻab turadi. Shuning uchun ham shoir ijodining asosiy mavzusi ona Vatan sogʻinchi boʻlib qoladi[10]. Vatan haqidagi sheʼrlarda, avvalo, shoirning ichki kechinmalari sof va tabiiy tuygʻulari va muhabbati samimiy ifoda etilishi lozim. Shuning uchun boʻlsa kerak, Vatan haqida yozilgan minglab sheʼrlardan barmoq bilan sanarligi xalq orasida shuhrat qozongan[6]. Oʻzbek tilida Vatan konsepti bevosita mustaqillik, istiqlool soʻzlari bilan chambarchas bogʻlangan “Mustaqillikka erishish istiqloolning toʻla maʼnoda voqelikka aylangani, yaʼni boshqalarga tobe boʻlmay, oʻz erki bilan yashash, oʻzini-oʻzi boshqarish va oʻz taqdirini oʻzi belgilash kabi tamoyillarning toʻla amalga oshganini bildiradi. Istiqlool, asosan, siyosiy jihatdan erkin boʻlishni anglatadi, mustaqillik – barcha sohalarda toʻla ozodlikka erishilgani, ixtiyori oʻzida ekanini ifodalaydi”[11].

Badiiy adabiyotni, xususan, milliy-maʼnaviy qadriyatlar aks etgan poetik matnlarni Vatan tavsifisiz tasavvur qilish qiyin. R.Tojimatov “Muhammad Yusuf sheʼrlarida “Vatan” konsepti” deb nomlangan ilmiy maqolasida quyidagicha mulohazalarni keltirib oʻtadi: “Vatan haqida yozgan shoirlarning hech biri hali Vatanni *singilga* oʻxshatgan emas yoki Vatanning *tol beshikdan boshlanishini* faqat shu ijodkorgina oʻz asarida ilk bor qoʻllagan. Vatanning bogʻ-rogʻlarini, soʻlim goʻshalarini tarannum etganlar koʻpdir. Lekin hech kim Vatanni “yuragimning olampanohi” deb uning “bukri bir jiydasining shoxi” ni kuylagan emas. Va yo “*tilimning ostida navvot – zarimsan, sen mening yagona paygʻambarimsan*” degan tashbehlarini Muhammad Yusuf sheʼriyatidagina koʻrishimiz mumkin. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, shoir Vatan haqidagi sheʼrlarining koʻpchiligida Vatanni onaga, singilga va opaga mengzadi”[7]. Maqoladagi fikrlar Vatan tasvirida ijodkorning individual uslubi ham muhim oʻrin tutishidan dalolat beradi.

XULOSA

Badiiy matnlarda Vatan tushunchasini ifodalash imkoniyatlari keng. Bu mazmunni bera oluvchi koʻplab leksik birliklarga ega boʻlgan shu mazmunni ifodalovchi birliklarning maʼnoviy qamrovi doirasiga koʻra davr ruhiga mos holda





kengayib borishi kuzatiladi. Vatan konseptida xalqning milliy-ma'naviy qadriyatlarini, tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq yuk olganligini ko'rsatuvchi g'oyaviy tashkil qiluvchi leksik birliklar mavjud bo'ladi.

Xullas, o'zbek poetik matnlarini tahlil qilish asosida Vatan konsepti leksik-semantik maydoni keng qamrovli bo'lib, uning aniq chegaralarini belgilab bo'lmaydi, bunda ijodkorning individual uslubiga bog'liq holda bu semantik maydon yangi leksemalar hisobiga doimo o'zgarib turadi degan xulosaga kelish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Борисенко И.В. Национальный образ России: философско-культурологический анализ: автореф. дис. ... канд. филос. наук. Ростов-на-Дону, 2008.С.4.
2. Карасик В.И. О категориях лингвокультурологии // Языковая личность: проблемы коммуникативной деятельности. — Волгоград: Перемена, 2001. С.40.
3. Махмудова С. Сўз ижодкорлигига доир баъзи мулоҳазалар <https://e-univer.adti.uz/pdf/download-soz-ijodkorligiga-doir-bazi-mulohazalar.pdf>
4. Михаил Эпштейн. Юксак поэзия ва алп одам. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/mihail-epshteyn-yuksak-poeziya-va-alp-odam/>
5. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 11-том. Садди Искандарий. –Т.: Фан, 1993.Б.468.
6. Пардаев Зокир Абдимажитович. Истиқлол даври шеърлятида халқона пафоснинг янгилиниши. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент – 2020. Б.114.
7. R.Tojimatov. Muhammad Yusuf she'rlarida vatan konsepti // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423.
8. Зоҳидова Д.Навоий ижодида Ватан мавзусининг бадиий талқини. “Филологиянинг умумназарий масалалари” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент-2020.6.274.
9. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xosiat-bekmirzayeva-bobur-va-ijodi-haqida-maqolalar.html>
10. <http://marifat-ziyo.uz/news/boburijodining>
11. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/istiqlol-uz/>

